

“O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF  
O‘QUVCHILARINI MATNNI TAHLIL QILISHGA O‘RGATISH MAZMUNI

Utanbayeva Dildora Abdixadirovna

Guliston davlat pedagogika instituti “Pedagogika” kafedrasи stajyor-o‘qituvchisi.

Sa’dullayeva Durdonaz Nazar qizi

Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

[dildorautanbayeva28@gmail.com](mailto:dildorautanbayeva28@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11222934>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim ona tili savodxonligi va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchlarni matnni o‘qib tushunish va uni tahlil qilishga o‘rgatish mazmuni yoritilgan. Shuningdek, matn ustida ishlashda She’riy matnlar ustida ishlash metodi, Grammatik sintaktik metod, Informativ yondashuvlarni o‘stirish metodi kabi innovatsion metodlardan foyalanishning ahamiyati bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, ona tili, matn, matn tahlili, matnni tushunish, o‘qish jarayoni, she’riy matn, leksik birliliklar, informativ yondashuv.

**CONTENT OF TEACHING ELEMENTARY STUDENTS TO ANALYZE THE TEXT IN  
THE LESSONS OF "READING LITERACY"**

**Abstract.** This article covers the content of primary education mother tongue literacy and reading literacy lessons to teach students to read and understand the text and analyze it. The importance of foiling from innovative techniques such as the method of working on poetic texts, the method of grammar syntactic, the method of growing informative approaches is also stated when working on the text.

**Keywords:** primary class, native language, text, text analysis, text comprehension, reading process, poetic text, lexical units, informative approach.

**СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ АНАЛИЗУ ТЕКСТА НА  
УРОКАХ" ЧИТАТЕЛЬСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ"**

**Аннотация.** В этой статье рассматривается содержание обучения учащихся чтению и пониманию текста и его анализу на уроках начальной образовательной грамотности и грамотности чтения. Также в работе над текстом отмечается значимость использования таких инновационных методов, как метод работы над поэтическими текстами, грамматико-синтаксический метод, метод культивирования информативных подходов.

**Ключевые слова:** начальный класс, родной язык, текст, анализ текста, понимание текста, процесс чтения, поэтический текст, лексические единицы, информативный подход.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish – 4-sinf o‘quvchilarida (to‘g‘ri, tezkor, ifodali va tushunib o‘qish) hamda o‘qish qoidalaridan xabardorligi, asarni tanlashi, kitob o‘qishga odatlanishi va bu yo‘lda harakatlarni izchil, doimiy tashkil etishi, asarni o‘qishdan zavqlanishi, asar mazmunini tushunishi va olgan taassurotlarini atrofdagilar bilan o‘rtoqlashish ko‘nikmalarining malakaga aylanishini ta’minlashga qaratilgan

pedagogik jarayondir. Bu haqida Yo.Qayumxo'jayeva quyidagicha izoh berib o'tgan: "O'qish va kitobxonlik madaniyati o'quvchilarda o'z o'quv faoliyatlari davomida kitob o'qish, uni tahlil qilish va mazkur asar haqidagi o'z fikrlarini bayon etish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Kitobxonlik madaniyati mazkur sohada o'quvchining yetukligini ham ifodalaydi.

Kitobxonlik madaniyati – rivojlangan tamaddunlar davrida butun insoniyatga xos bo'lган ma'rifiy-ta'limiy hodisadir. U ta'lim-tarbiya natijasida o'quvchida hosil qilinadigan ko'nikmalar, qiziqishlar, ijodiy imkoniyatlarni ham ifodalaydi" [3;7].

"O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi" [2;5]. O'qish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilar egallangan lisoniy sath birliklaridan, o'quv-bilish, kognitiv ko'nikmalariga tayanadi.

O'quvchilarning matnni o'qishini, uni tushunish uchun ko'plab innovatsion metodlardan va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ahamiyatlidir. A.Lenhart, K.Purcell, A.Smith, K.Zickuhrlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, "bugungi kunda talabalar uyda ham, maktabda ham o'qish uchun va bo'sh vaqtini o'tkazish maqsadida texnologiyadan foydalanishmoqda" [6].

**She'riy matn bilan ishlash metodi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari she'rni o'qishga, uni aytishga qiziqadirlar. Shu jarayon asnosida ularni poetik jihatdan bilimini kengaytirish, badiiy tahlil doirasini o'stirish uchun "Ona tili darsida" she'ri matni tanlab olindi. Har bir o'quvchiga she'r matni tarqatiladi va ular o'qishlari uchun vaqt beriladi. Shundan so'ng, ulardan quyidagi topshiriqlarga javob berish so'raladi.

Ona tili darsida

(“O'g'limga darsliklar” turkumidan)

“O'g'lim, tanib qolding oq-u qorani,

Endi ertaklar ham seni aldamas.

Yo'q joydan savollar topasan menga,

Nega “Ona tili”, “Ota tili”mas?

Bu haqda hech qachon ko'rmapman o'ylab,

Qalbimni uyg'otdi bir ilohiy his

Bizning o'zagimiz ona ko'nglidir,

“Ona tili” deya atalmas bejiz.

Bilsang, kindik qoning to'kilgan tuproq,

Mening dilim, sening, uning dilidir.

Agar-chi, Vatanni onajon desak,

Bizning “Ona tili” Vatan tilidir.

Bu tilda so'zlaydi o'zbek vijdoni,

Va yana bor unda dunyo havasi.

Tinglasang keladi har so'z qatidan,

Navoiy bobongning o'tli nafasi.

O'rgilay, onajon degan tilingdan,

Demak, “Ona tili” joning tilidir.

Mehr oqayotgan tomirlaringda

“Ona tili” buyuk qoning tilidir”[8;10].

Halima Ahmedova

1-topshiriq. She’rning mazmunini o‘z tilingizda so‘zlab bering.

2-topshiriq. Nega biz “Ona tili” deymiz, “Ota tili” demaymiz?

3-topshiriq. Sizga so‘zlashni kim o‘rgatgan?

4-topshiriq. Rasmga qarab “Ona tili”ni e’zozlash deganda nimani tushunishingizni og‘zaki bayon qiling.

Topshiriqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil holda faoliyat olib borish malakalari va mas’uliyatni his qilish, chaqqonlik, tashabbuskorlik, keng dunyoqarashli bo‘lish kabi fazilatlarini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

### Grammatik sintaktik metod.

O‘zbek tilining grammatikasi va tilshunoslikning sintaksis bo‘limi yuzasidan ma’lumotlarni yoshiga nisbatan egallab, to‘g‘ri gap tuzish malakalari inobatga olinadi.

1-bosqich.	Mavzuga oid so‘zlarining lug‘aviy ma’nosini leksik birliklar silsilasini tanlash
2-bosqich.	3-4-5 ta so‘zni bitta jumлага biriktirish.
3-bosqich.	Sarlavhaga oid mazmunni o‘zida mujassam qilgan 5 ta gap tuzish
4-bosqich.	Matnni xatboshidan boshlash. Kiritmalardan unumli foydalanish
5-bosqich.	Mazmunga va ma’noga ega bo‘lgan gaplar asosida matn yaratish

**Informativ yondashuvlarni o‘stirish metodi.** Bunda o‘quvchilar matnda berilgan ma’lumotni ifodali o‘qib, undagi ifodalangan g‘oyani og‘zaki ravishda ikki guruhga bo‘lib, gapirib berishlari kerak.

### Kulol bobo

Hayotda bir emas, bir necha hunarni egallagan odam baxtlidir. Qadim zamonlarda kulolchilik hunarini bilganlar juda e’zozlangan ekan. Chunki u vaqtarda idish-tovoq hozirgidek serob emas ekan-da.

Rahim bobo degan keksa odam kulolchilikda mashhur ekan. Ular yasagan ko‘zalar, laganlar, guldonlar, qo‘ying-chi, har bir buyum shunday chiroyligi va bejirim, foydalanish uchun qulay ekan.

Aslida hunarni egallah, uning qiyinchiliklariga bardosh berish qiyin kechadi. Sopol buyum yashash uchun avval tuproq olinib, loy qoriladi. So‘ng shakl beriladi. Buning uchun maxsus dastgoh bo‘ladi. Rahim bobo murakkab bu ishni qunt va chidam bilan sifatli bajarar ekanlar.

Rahim bobo ko‘p shogirdlariga o‘zlarining hunarlarini o‘rgatganlar.

Shuni aytadilar-da: “Hunar – hunardan unar”, deb[4].

Shunisi ayonki, o‘quvchilarda matn tahlili ustida ishlash, matn mazmun- mohiyatini bir butunlikda mujassamlashgan va proporsional holda tahlil qilish, matnlardan axborotni, informatsiyani anglab etish ulardagi kommunikativ-nutqiy kompetensiyalar rivojiga asos bo‘ladi.

Shu sababli bu jarayonning samaradorligiga erishish uchun o‘quv darsliklaridagi mavzular mos tuzilishini ta’minalash hamda metodik, leksik ta’minati yuqori darajada bo‘lishi, kontekstli yondashuvga tizim bilan yondashishni taqozo qiladi.

## REFERENCES

1. Abdixadirovna, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 696-700.
2. Abdikhadirovna, U. D. (2022). Possibilities of improving the methodology of preparing primary class students for the international assessment program based on digital technologies (example of pirls). *Innovation in the modern education system*, 3(25), 159-163.
3. Abdixadirovna, U. D. (2022). The role of digital pedagogy in the development of student oral and written speech in primary school mother tongue lessonst.
4. Baynazarova D.D. Ona tili savodxonligi. 4-sinf. II qism. Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -12-13 b.
5. Kintsch W. (2013). Revisiting the construction-integration model of text comprehension and its implications for instruction (6th ed., pp. 807–839). Newark, DE: International Reading Association
6. Lenhart A., Purcell K., Smith A., & Zickuhr K. (2010). Social media & mobile Internet use among teens and young adults (pp. 155-79). Washington, DC: Pew Internet & American Life Project.
7. Qayumxo‘jayeva Yo. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. –A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, 2007. –B. 48-50.
8. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. 4-sinf. I qism. Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun darslik. –T.: Novda edutainment, 2023. 46 b.
9. Utanbayeva, D. A. (2020). BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARINI ONA TILI TA’LIMI JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O’RGATISH. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 236-239).
10. Utanbayeva, D. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA SAMARALI TAYYORLASHDA BADIY MATNLAR BILAN ISHASHNING AHAMIYATI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(4), 27-31.